

SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRI

Asadov O'lmasjon Dilshod o'g'li

Navoiy davlat universiteti

Tabiiy fanlar va Tibbiyot fakulteti talabasi,

Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarini atrof-muhitga salbiy ta'siri hamda, suv va iqlimni inson hayotida va uning yashash tarziga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, suv resurslardan unumli foydalanish uni tejab ishlatish xususida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat, ekologiya, suv, korxonona, texnika, iqlim, qurg'oqchilik, prognoz.

ВЛИЯНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

Асадов Улмасжон Дилшод углы

Навоийский государственный университет

Студент факультета естественных наук и медицины,

Навои, Узбекистан

Аннотация: В статье анализируется негативное воздействие промышленных предприятий на окружающую среду, негативное воздействие воды и климата на жизнь и образ жизни человека, а также рассматриваются вопросы эффективного использования водных ресурсов и их экономного использования.

Ключевые слова: Промышленность, экология, вода, предприятие, технологии, климат, засуха, прогноз.

IMPACT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES ON THE ENVIRONMENT

Asadov Ulmasjon Dilshod ugli

Navoi State University

Student of the Faculty of Natural Sciences and Medicine,

Navoi, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the negative impact of industrial enterprises on the environment and the negative impact of water and climate on human life

and lifestyle. It also discusses the efficient use of water resources and their economical use.

Keywords: Industry, ecology, water, enterprise, technology, climate, drought, forecast.

Inson tabiatning eng oliy vakili hisoblanadi chunki, nur sohib turgan quyosh, uning atrofida aylanayotgan yerimiz, yulduzlar, oy, yer osti va yer usti boyliklari umuman atrofimizda o‘rab turgan borliq inson uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda zamonaviy ekalogik muommalarni tahlil qilarkanmiz, undagi bo‘layotgan salbiy jarayonlarning barchasiga inson omili ta’siri bor yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yaxshi yashashga bo‘lgan ehtiyojlari ortib bormoqda. Shuningdek, sanoatning barcha tarmoqlarini rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiyotini yuqori darajada o‘shishiga olib kelmoqda. Ammo, sanoat korxonalarining yuqori darjada rivojlanishi atrof muhitga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Atrof muhitdagi xavf-xatarni kamaytirish, ekalogik vaziyatni yaxshilash dolzarb masalalardan sanaladi.

Ekalogik barqarorlikni ta’minlash aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart – sharoitlar yaratish tabiiy resuslardan oqilona va samarali foydalanish kabi ishlar amalga oshirish zarur. Chunki, hozirgi kunda insoniyat uchun og‘ir xavflardan biri global isish xavfidir. Global isish muommosining asosiy sababi har xil gazlar ko‘p chiqarilishi yoki antropogen oqibatlar ta’siridir. Har qanday davlat rivojlanganligi sari sanoat va texnika tarqqiyot eta boshlaydi va ushbu sohalar rivojlanadi. Shuningdek, avtomobillar turar joylar ko‘payadi, o‘rmonlar kesilishi tufayli atmosferaga o‘z tasirini o‘tkazadi.

Iqlimning o‘zgarib borishi insoniyat oldidagi dolzarb muommalardan biri hisoblanadi. Biz o‘tgan asrlarga qaraganda yashash tarzimiz o‘zgargan, shu bilan birga kutilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli kurilmagan darajada kamayib borishi yer yuzining turli mintaqalarida qurg‘oqchiliklar, suv

toshqinlari havoning ifloslanishi kabi bir qator salbiy holatlar yuz berganligi ma'lum. Suv resuslardan foydalanishda toza ichimlik suvini tejamadan kelajak avlodni suvga bo'lgan ehtiyojini oshisahiga sabab bo'lmoqdamiz. Prognozlarga ko'ra foydalanishga yaroqli bo'lgan ichimlik suvi 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab mavjud bo'lgan suv taminoti o'rtasida 40 foiz tafovut vujudga kelishi mumkin.

Ilmiy prognozlar shuni kursatadiki suv-hayot manbai, uning qiymati dunyo globallashuv jarayonida yanada namayon bo'lmoqda. Hozirgi kunda suvga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Aholi soni kupaygani sari butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilmogda. Bu masala O'zbekistonda ham muhim muommolardan sanaladi. Olimlarning fikrga ko'ra 2050–yilgacha Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayish prognoz qilinmogda. O'zbekistonda suvga bo'lgan talab 7 mlrd kub/metr ga yetishi 2050-yilga borib bu kursatgich 2 barobarga ortishi mumkin. Mana shu ma'lumotlarni inobatga olib so'nggi yillarda yurtimizda suv resuslardan foydalanish tubdan isloh qilinmogda. Sug'oriladigan yerlarning miliarativ holatini yaxshilashga qaratilgan masala 2017-2023 –yillarda jami 1,2 mln gektar maydonda yani qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qariyb 31 foizida suv tejevchi texnologiyalar joriy etildi. Bu tomchilab sug'orish texnologiyasini o'z ichiga oladi. 630 ming gektar yer lazerli tekshiridi. Bu sohadagi ishlar ko'lami sezilarlicha, masalan, 5479 ta aqlli suv nasos stansiyasiga 1446 ta onlayn nazorat qurilmalari shuningdek, meliorativ kuzatuv qurilmalariga menirallashganlik darajasini onlayn nazorat qiluvchi 5055-ta "Dayver " qurilmalari o'rnatildi. 45 ta yirik suv xo'jaligi obektlarining boshqaruv jarayoni avtomatlashtirildi. Amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida 3 mlrd kub metr suv iqtisod qilinib, qo'shimcha 400 ming gektar maydonda suv taminoti yaxshilandi. Hozirgi kunda O'zbekiston suv tejevchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi dunyoda o'n uchinchi o'rinni egallaydi. Yer yuzida 2mlrd ga yaqin aholi toza ichimlik suviga muhtoj 2 mlrd 300 mln aholi esa notoza suv istemol qiladi.

Oxirgi paytlarda dunyo iqlimi katta o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Muzliklar erib dengiz sathi kutarilib bormoqda va o'rmonlar qiusqarib bormoqda. Bu salbiy oqibatlar ortida inson omili turibdi. Agar barcha muzliklar erib ketsa, dengiz suvi 65 metrga qadar kutariladi. Bu esa dengiz sathiga yaqin quruqliklarning suv ostida qolishni anglatadi. Olimlarning ta'kidlashicha 2050-yilga borib muzliklar bilan dengiz sathi 1 futdan 2-3 futgacha kutariladi. Bu esa qurg'oqchilik kuchli bo'ronlar ortishini, o'simliklar va hayvonlar yashay oladigan maydonlar qisqarishini kursatadi. Dunyoda har yili taxminan 410 mln odam metiriologik ofatlardan aziyat chekayotgani 7 ming 600 kishi hayotdan kuz yumganini va tabiiy ofatlarning 6 foizi o'lim, 16 foizi esa jarohatlarga sabab bo'ladi.

Shu bilan bir kunda millionlab avtomobil harakati, ortiqcha energiya istemoli milionlab uylarni isitish uning barchasiga ekalogiyaga ta'siri bor. Ozon qatlamining tuynuklarining kengayishi va kupayib ketishi insoniyatning eng yangi global muommolarida biri ozon qatlamining yemirilishi ham o'z navabatida turli xildagi gazlar natijasida bo'lmoqda. Atrof-muhitga sanoat korxonolari bilan bir qatorda zaharli chiqindilar ham o'z tasiri kursatmoqda. Olimlar Himolay tog'lari havzasidagi zarralarni tahlil qilib ulardan muzliklarni erishini tezlashtiruvchi "Jigarrang uglevod" katta miqdorda borligini aniqlashdi. Atmosferadagi uglerod chiqindilari qora va jigarrang uglerodlarga bo'linadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, chiqindilar ham iqlimga katta ta'sir o'tkazadi. Har bir inson katta miqdorda keraksiz ashyolarni chiqindiga aylantiradi va buni tabiatga chiqarib yuboradi. Plastik va rezina ashyolar uzoq muddat davom etadigan jarayonda parchalanadi. Hozirgi kunda barcha turdagi chiqindini qayta ishlash faqat bir necha mamlakatlarda an'anaviy amaliyotga aylantirgan. Yer ostidagi kimyoviy parchalanish natijasida atrof-muhitga karbanat angdirid va metan gazini chiqaradi. Bu esa atmosferada issiqlik ishab chiqaradi. Bu "Issiqxona effekti" ni yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Khudoyberdieva, I. Analyzing of Influential Factors for the Development of Livestock and their Significance in Navoi Region.

2. Latipov, N. (2022). НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА АХ. ОЛИ САЛОМАТЛИГИГА ЭКОЛОГИЯНИНГ ТАЪСИРИ.
3. Komilova, N. K., & Latipov, N. F. (2022). FACTORS AFFECTING THE ECOLOGICAL STATUS OF INDUSTRIALIZED CITIES AND MEASURES TO MONITOR THEM (ON THE EXAMPLE OF NAVOI REGION). Экономика и социум, (2-2 (93)), 199-206.
4. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 343-352.
5. Latipov, N. (2022). НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МАЪМУРИЙ БИРЛИКЛАРИ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИ ТАСНИФИ ВА АҲОЛИ САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР. Scienceweb academic papers collection.
6. Latipov, N. (2022). УРБОЭКОЛОГИЯ-ГЕОГРАФИЯ ВА ЭКОЛОГИЯНИНГ ФАНЛАРАРО СИНТЕЗИ. Scienceweb academic papers collection.
7. Komilova, N. K., & Latipov, N. F. (2022). Analysis of existing methodological approaches in assessing the quality of the environmental condition of cities. Экономика и социум, (12-1 (103)), 161-165.
8. Abduxomidovna, X. I. (2022). NAVOIY VILOYATIDA QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHATLARI. ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО,(2).
9. Komilova, N., Mukhammedova, N., Ermatova, N., Ibragimova, Z., & Bafoeva, S. (2023). Pandemics and their geographical distribution. EMERGENCY MEDICINE, 19(6), 386-392.
10. Mukhammedova, N. J., & Koziyeva, M. S. (2024). ECONOMIC-SOCIAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF NAVBAHAR DISTRICT. World of Scientific news in Science, 2(1), 619-623.
11. Mukhammedova, N. J., & Talabboyeva, M. (2024). NAVOIY VILOYATI SANOATI. New article, 1(1), 64-66.
12. Shodmonovich, N. S. (2024). DYNAMICS OF POPULATION AND LABOUR RESOURCES OF NAVOI REGION, THEIR LOCATION CHARACTERISTICS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(06), 221-235.
13. Zakirov, S. S. (2023). Deepening Of Territorial Specialization in The Production of Agricultural Products (In the example of the suburbs of the city of Navoi). Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 19, 8-15.